Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Xudoyorxon o’rdasi nomlanishining lingvistik asoslari

Nurbek Zokirjon o’g’li Akhmadjonov*

Farg’ona davlat universiteti

✉ akhmadjonovnurbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar

oykodomonim, Xudoyorxon o‘rdasi, izofa, saroy leksikasi, transliteratsiya

DOI: 10.5281/zenodo.23279070

KIRISH

Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi Qo‘qon xonligi me’morchiligining eng yirik yodgorligi va Farg‘ona vodiysining ramziy obidalaridan biridir. Saroy 1845–1875-yillarda uch marta taxtga chiqqan Xudoyorxon buyurtmasi bilan me’mor Mir Ubaydulla rahbarligida bunyod etilgan; manbalarda qurilish sanasi 1863–1873-yillar oralig‘ida, ko‘pincha 1871-yil bilan beriladi. Majmua qariyb 4 gektar maydonni egallagan, 65 × 138 m o‘lchamli murakkab tarhida yuzdan ortiq xona bo‘lgan. Hozir uning ikki hovlisi va 19 xonasi saqlangan, binoda muzey joylashgan. O‘rda 2008-yilda YuNESKO Butunjahon merosining dastlabki ro‘yxatiga taqdim etilgan «Qo‘qonning tarixiy markazi» nominatsiyasining asosiy obyektlaridan biridir [5].

Onomastik nuqtai nazardan bu nom oykodomonim, ya’ni alohida bino yoki inshootning atoqli oti hisoblanadi [3]. Oykodomonimlarda atoqli ot bilan turdosh ot o‘rtasidagi munosabat, turdosh otning onimlashuvi va nomning bir onomastik toifadan ikkinchisiga o‘tishi (transonimizatsiya) kabi umumiy qonuniyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi [4]. Xudoyorxon o‘rdasi nomi epigrafik, rasmiy, og‘zaki va xorijiy variantlarga ega, saroy qismlari esa alohida atamalar bilan nomlangan. Shu bois bitta obyekt misolida nomlanish jarayonini to‘liq kuzatish mumkin.

Tarixiy obidalar nomlari bugun sayyohlik, ta’lim va madaniy meros hujjatlarida bir necha tilda qo‘llanadi, shu bois ularning lingvistik tabiatini aniqlash nomlarni to‘g‘ri talqin qilish va me’yorlashtirish uchun ham zarur. Obida me’morlik va tarix nuqtai nazaridan ko‘p yoritilgan bo‘lsa-da, uning nomi maxsus lingvistik tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqot maqsadi – Xudoyorxon o‘rdasi nomining nomlanish asoslari, tuzilishi, etimologik qatlamlari va variantlashuvini aniqlash. Vazifalar: nomning barcha variantlarini aniqlash, epigrafik va hozirgi nomning tuzilishini qiyoslash, nom komponentlari va saroy qismlari atamalarining etimologiyasini belgilash, variantlashuv va onimlashuv jarayonlarini tavsiflash.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot materialini Xudoyorxon o‘rdasi bilan bog‘liq onomastik va terminologik birliklar tashkil etadi: darvozaxona peshtoqidagi «Arki oliy Sayyid Muhammad Xudoyorxon» yozuvi; hozirgi rasmiy nom Xudoyorxon o‘rdasi; Xudoyorxon saroyi, Xon o‘rdasi, O‘rda kabi sinonimik va og‘zaki variantlar; rus va ingliz tillaridagi shakllar (Дворец Худоярхана, Урда, Khudoyar Khan’s Palace); saroy qismlarining 11 ta nomi.

Ma’lumotlar YuNESKO dastlabki ro‘yxatiga taqdim etilgan «Qo‘qonning tarixiy markazi» nominatsiya hujjatidan, ensiklopedik va rasmiy turistik manbalardan hamda ilmiy nashrlardan yig‘ildi.

Tahlilda komponent tahlil (nomni onomastik aniqlovchi va me’moriy termin qismlariga ajratish), etimologik tahlil, so‘z yasalishi tahlili, qiyosiy usul va transformatsion tahlil qo‘llandi. Ish besh bosqichda olib borildi: manbalardagi barcha nom shakllarini yig‘ish; har bir shaklni aniqlovchi va termin komponentlariga ajratish; komponentlarning kelib chiqishini lug‘atlar asosida belgilash; epigrafik nomdan hozirgi nomgacha bo‘lgan o‘zgarishlar zanjirini tiklash; natijalarni Buxoro va Xiva saroylari nomlari bilan qiyoslash. Etimologik talqinlarda qadimgi turkiy va o‘zbek antroponimik lug‘atlariga tayanildi; etimologik belgilarda ar. – arabcha, fors. – forscha, turk. – turkiy qisqartmalari qo‘llandi.

NATIJALAR

1. Epigrafik nomdan hozirgi nomga

O‘rdaning tarixiy (epigrafik) nomi – Arki oliy Sayyid Muhammad Xudoyorxon – fors tilidagi ikki bosqichli izofa zanjiridir: ark-i ‘ālī ‘oliy qarorgoh’ sifatlovchi izofasi -yi ko‘rsatkichi orqali egani bildiruvchi Sayyid Muhammad Xudoyorxon qismiga bog‘lanadi; hozirgi o‘qilishda ikkinchi ko‘rsatkich aks etmaydi. Yozuv darvozaxona peshtoqidagi kitobada (ar. kitāba ‘yozuv, bitik’) joylashgan. Hozirgi rasmiy nom Xudoyorxon o‘rdasi esa o‘zbek tilidagi belgisiz qaratqichli egalik birikmasidir. Ikki nom 1-jadvalda qiyoslangan.

1-jadval. Epigrafik va hozirgi nomning qiyosiy tahlili

Belgi	Epigrafik nom	Hozirgi nom
Tili va modeli	fors tili; izofa zanjiri	o‘zbek tili; belgisiz qaratqichli egalik birikmasi
Hokim so‘z o‘rni	boshida (ark)	oxirida (o‘rda)
Me’moriy termin	ark (fors.) ‘qal’a, qarorgoh’	o‘rda (turk.) ‘xon qarorgohi, saroy’
Sifatlovchi	oliy (ar.) ‘yuksak’	yo‘q
Titulatura	Sayyid Muhammad Xudoyorxon	Xudoyorxon
Grammatik ko‘rsatkich	izofa -i, -yi	III shaxs egalik qo‘shimchasi -si

Qiyoslash to‘rt transformatsiyani ko‘rsatadi. Birinchidan, so‘z tartibi o‘zgargan: forscha modelda hokim so‘z boshda, turkiy modelda oxirda keladi. Ikkinchidan, forscha ark termini turkiy o‘rda bilan almashgan. Uchinchidan, oliy sifatlovchisi tushib qolgan. To‘rtinchidan, titulatura qisqargan: Sayyid unvoni va Muhammad ismi saqlanmagan. Natijada izofa ko‘rsatkichi o‘rnini III shaxs egalik qo‘shimchasi -si egallagan. Termin almashuvi semantik jihatdan ham ahamiyatli: ark ‘shahar ichidagi mustahkam qal’a’ semasini, o‘rda esa ‘hukmdor qarorgohi’ semasini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Demak, nom mudofaa inshooti tushunchasidan hokimiyat markazi tushunchasiga qarab qayta motivatsiyalangan.

Izofa hozirgi o‘zbek tilida unumsiz bo‘lgani uchun epigrafik nomning ichki shakli anglanmay qolmoqda. Buni yozuvning zamonaviy talqinlaridagi farqlar ko‘rsatadi: YuNESKO hujjatida u ‘Said Muhammad Xudoyorxonning yuqori xonalari’ deb tarjima qilingan [5], ayrim turistik matnlarda Arkchi oliy kabi buzilgan shakl uchraydi, rus tilidagi matnlarda esa «Великий Сеид Мухаммад Худояр-хан» deb beriladi. Oxirgi talqinda oliy sifatlovchisi ark so‘ziga emas, xonga nisbat berilgan, ya’ni izofa munosabati noto‘g‘ri tiklangan. Aslida yozuv ‘Sayyid Muhammad Xudoyorxonning oliy qarorgohi’ ma’nosini anglatadi.

2. Antroponim komponenti

Nomning aniqlovchi qismi Xudoyor ismi va xon unvonidan tarkib topgan. Xudoyor – forscha xudā ‘Xudo’ va yār ‘do‘st, madadkor’ so‘zlaridan tuzilgan teofor ism bo‘lib, Xudoyberdi, Xudoyqul kabi Xudo- komponentli ismlar bilan bir guruhni tashkil etadi [1]. Xon – turkiy-mo‘g‘ul hukmdor unvoni; u o‘zbek imlosida ismga qo‘shib yoziladi (Umarxon, Xudoyorxon), bu esa unvonning antroponim tarkibiga singib, leksikalashganini ko‘rsatadi. Epigrafik titulaturadagi Sayyid (ar. ‘janob; Payg‘ambar avlodi’) va Muhammad (ar. ‘maqtalgan’) komponentlari hukmdor nomiga diniy-sakral maqom bergan. Ularning hozirgi nomda tushib qolishi nomning ixchamlashuvi va desakralizatsiyasidir. Xudo- komponentli ismlarning bir qismi gibrid tuzilishga ega (Xudoyberdi: fors. xudā + turk. berdi), Xudoyor esa to‘liq forscha. Xon unvonini Qo‘qon hukmdorlari XIX asr boshidan qo‘llay boshlagan; shu bois u avvalgi biy unvonidan farqli ravishda nomni xonlik davriga bog‘laydi.

3. Termin komponenti: o‘rda

O‘rda so‘zi qadimgi turkiy ordu ‘xon qarorgohi, saroy’ so‘ziga borib taqaladi [2, 370]. Ko‘chmanchi turkiy davlatlarda bu so‘z avval xon chodiri va qarorgohini, so‘ngra poytaxt va davlatni ham anglatgan. Rus tiliga XIII asrda орда shaklida o‘tgan so‘z Золотая Орда kabi tarixiy nomlarda qo‘llangan, keyinchalik ‘tartibsiz olomon’ degan salbiy ma’no kasb etgan; ingliz tilidagi horde ham shu so‘zdan kelib chiqqan.

O‘zbek tilida o‘rda ‘xon qarorgohi, saroy-qal’a’ ma’nosini saqlagan. Obidaga nisbatan forscha saroy so‘zi ham faol qo‘llanadi (Xudoyorxon saroyi), biroq o‘rda termini uch metr baland poydevorga qurilgan, devor bilan o‘ralgan majmuaning ham saroy, ham qo‘rg‘on ekanini yaxlit ifodalaydi. Rus tilidagi manbalarda majmua Кокандская урда, Урда deb ham ataladi. Shu tariqa rus tilida bir turkiy so‘zning ikki o‘zlashmasi – eski орда va yangi урда – yuzaga kelgan. O‘zbekcha o‘ unlisining rus tilida y bilan berilishi muntazam moslikdir (O‘zbek – узбек, O‘rda – Урда). Ingliz tilidagi Urda shakli rus tili orqali o‘zlashgan va hatto o‘zbekcha turistik matnlarga qaytib kirgan. Sinonimlarning semantik farqi quyidagicha: o‘rda – [+hukmdor qarorgohi], [+mustahkamlangan], [+turkiy davlatchilik an’anasi]; saroy – [+hashamatli turar joy], [–mustahkamlangan]; ark – [+qal’a], [+shahar markazi]. Bu belgilar majmui o‘rda termini Qo‘qon majmuasining tabiatiga eng mos kelishini ko‘rsatadi.

4. Saroy qismlarining nomlari

O‘rda tarkibiy qismlarining nomlari saroy leksikasining alohida mikrotizimini tashkil etadi (2-jadval). Manbalarga ko‘ra, birinchi hovlida ayvon, ko‘rinishxona (salomxona), xazinaxona va alohida hovlili masjid, keyingi hovlida xon qarorgohi – shohnishin, orqa qismda esa haramxona joylashgan.

2-jadval. Xudoyorxon o‘rdasi qismlari nomlarining etimologik tahlili

Atama	Tarkibi va kelib chiqishi	Vazifasi
darvozaxona	fors. darvāza ‘darvoza’ + xāna ‘uy, xona’	kirish binosi
peshtoq	fors. pesh ‘old’ + tāq ‘ravoq’	bosh portal
ayvon	fors. ayvān	ustunli yarim ochiq xona
ko‘rinishxona	turk. ko‘r-in-ish + fors. xāna	xonning qabul (ko‘rinish) zali
salomxona	ar. salām ‘salom’ + fors. xāna	rasmiy qabul xonasi
qabulxona	ar. qabūl ‘qabul qilish’ + fors. xāna	qabul zali
xazinaxona	ar. xazīna ‘xazina’ + fors. xāna	xazina saqlanadigan xona
zarrinxona	fors. zarrīn ‘oltin, zarrin’ + xāna	xazinaxonaning metaforik nomi
masjid	ar. masjid ‘sajda qilinadigan joy’	saroy masjidi
shohnishin	fors. shāh ‘shoh’ + nishīn ‘o‘tiradigan’	xon qarorgohi
haramxona	ar. haram ‘daxlsiz’ + fors. xāna	xon oilasining ichki qismi

11 ta atamadan 7 tasi -xona formanti bilan yasalgan: darvozaxona, ko‘rinishxona, salomxona, qabulxona, xazinaxona, zarrinxona, haramxona. Bu formant saroy leksikasining asosiy yasalish modeli bo‘lib, uning o‘zaklari uch qatlamga mansub: forscha (darvoza, zarrin), arabcha (salom, qabul, xazina, haram) va turkiy (ko‘rinish). Ko‘rinishxona – turkiy ko‘r- fe’lidan -in- nisbat va -ish harakat nomi qo‘shimchalari bilan hosil qilingan so‘zning fors xona so‘ziga qo‘shilishidan yasalgan gibrid bo‘lib, xonning fuqarolarga «ko‘rinish» marosimini ifodalaydi. Xazinaxona atamasi qisman pleonastik, zarrinxona esa xuddi shu xonaning metaforik nomidir. Umuman, 11 ta atamaning 10 tasida fors unsuri bor, turkiy unsur esa faqat ko‘rinishxona atamasida uchraydi. Demak, obidaning umumiy nomida turkiy o‘rda termini, ichki nomenklaturasida esa fors-arab atamalari ustun. -xona hozirgi o‘zbek tilida o‘rin-joy otlarini yasovchi unumli qo‘shimcha sifatida qaraladi (oshxona, choyxona, kutubxona). Manbalarda uchraydigan taxt xonasi esa sintaktik usulda hosil bo‘lgan birikmadir; qo‘shma so‘z (xazinaxona) va birikma (taxt xonasi) modellarining yonma-yon qo‘llanishi xona komponentining mustaqil so‘z bilan qo‘shimcha oralig‘idagi maqomini ko‘rsatadi.

5. Variantlashuv va onimlashuv

O‘zbek tilida rasmiy Xudoyorxon o‘rdasi bilan birga Xudoyorxon saroyi, Xon o‘rdasi va qisqargan O‘rda shakllari qo‘llanadi; kirill yozuvida Худоёрхон ўрдаси shakli bor. Rus tilida Дворец Худояр-хана, Дворец Худоярхана, Дворец Худаяр-хана, ingliz tilida Khudoyar Khan’s Palace, Palace of Khudoyar Khan va Urda shakllari uchraydi. Ismdagi o‘zbekcha o [ɔ] unlisining rus tilida a bilan berilishi (Худояр, Худаяр) hamda unvonning chiziqcha bilan yoki qo‘shib yozilishi transliteratsion variantlilikni kuchaytiradi. YuNESKO hujjatidagi Said Mukhammad Khudoyorkhan yozuvi ham ikki bosqichli vositachilikni aks ettiradi: arabcha sayyid o‘zbek talaffuziga moslashib Said shaklini olgan, Mukhammad esa rus tilidagi Мухаммад shaklining transliteratsiyasidir. Rus tilidagi sayyohlik matnlarida Жемчужина Коканда (‘Qo‘qon durdonasi’) kabi perifrastik nom ham qo‘llanadi; u rasmiy nomni almashtirmaydi, balki unga baho beruvchi ikkilamchi nom vazifasini bajaradi.

Bino muzeyga aylangach, o‘rda so‘zi ‘amaldagi xon qarorgohi’ denotatini yo‘qotib, nomning ajralmas qismiga aylandi. Bosh harf bilan yoziladigan O‘rda shakli esa turdosh otning elliptik onimlashuvidir: aniqlovchi qism tushib qolib, termin atoqli ot vazifasini bajaradi. Obida bilan bog‘liq antroponimlar ham kasbiy va ijtimoiy unvonlarni saqlagan: me’mor Mir Ubaydulla Muhandis (mir – ar. amīr so‘zining qisqargan shakli, muhandis – ar. ‘muhandis, handasachi’), ustalar Mulla Suyarqul, Solixo‘ja, Fozilxo‘ja.

Nom grammatik jihatdan ham yaxlit birlik sifatida ishlaydi: kelishik qo‘shimchalari butun birikmaga qo‘shiladi (Xudoyorxon o‘rdasiga, Xudoyorxon o‘rdasida), birikmaning o‘zi esa yangi egalik birikmasining aniqlovchisi bo‘la oladi (Xudoyorxon o‘rdasi darvozaxonasi). Ko‘plik shaklining (o‘rdalar) qo‘llanmasligi nomning yakkalik ma’nosini ko‘rsatadi. Bu belgilar birikmaning atoqli ot sifatida leksikalashganidan dalolat beradi.

MUHOKAMA

Natijalar Xudoyorxon o‘rdasi nomi Qo‘qon xonligidagi turkiy-forsiy ikki tillilikni aks ettirishini ko‘rsatadi. Epigrafik nom yozma madaniyatning obro‘li tili bo‘lgan fors tilida, xalq nomi esa turkiy so‘zlashuv tilida shakllangan. Hozirgi rasmiy nom ikkinchi yo‘lni davom ettiradi: turkiy model va turkiy termin tanlanib, fors izofasi va arabcha sifatlovchi chetda qolgan. Tahlil atoqli otlarda ichki shaklning xiralashuvi (deetimologizatsiya) hodisasini ham tasdiqlaydi: izofali epigrafik nom hozirgi so‘zlovchilar uchun shaffof bo‘lmagani sababli qayta talqin qilinmoqda. Орда va урда dubletlari esa bir so‘zning turli tarixiy davrlarda takroriy o‘zlashishiga yorqin misoldir.

Nomning antroponimik-memorial asosi Movarounnahr me’morchiligidagi obidani homiy nomi bilan atash an’anasiga mos keladi. Biroq qiyosiy material Qo‘qon o‘rdasi nomining o‘ziga xosligini ham ko‘rsatadi. Buxorodagi hukmdor qarorgohi turdosh termin asosida Ark, amirning yozgi saroyi esa fors izofali metaforik nom bilan Sitorai Mohi Xosa deb ataladi; Xivadagi saroylar Ko‘hna ark va Tosh hovli nomlarini olgan. Ulardan farqli ravishda Qo‘qon saroyi nomi homiy ismini turkiy o‘rda termini bilan birlashtirgan. Bitta obyekt misolidagi tahlil uning atrofida onomastik maydon shakllanishini ham ko‘rsatadi. Maydon yadrosida rasmiy nom Xudoyorxon o‘rdasi turadi; unga yaqin qatlamni sinonimik va elliptik shakllar (Xudoyorxon saroyi, Xon o‘rdasi, O‘rda), keyingi qatlamni epigrafik nom va xorijiy variantlar, periferiyani esa saroy qismlari atamalari, bunyodkorlar ismlari va perifrastik nomlar tashkil etadi. Bunday yondashuv tarixiy obida nomini alohida birlik sifatida emas, o‘zaro bog‘liq nomlar tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi. Saroy ichki nomenklaturasidagi fors-arab qatlamining ustunligi Qo‘qon saroy madaniyati Movarounnahrning umumiy saroy leksikasiga tayanganini ko‘rsatadi. Ko‘rinishxona, salomxona va qabulxona atamalarining sinonimik qo‘llanishi esa turkiy va arab-fors o‘zakli nomlarning bir vazifani ifodalashda raqobatlashganidan dalolat beradi.

Nom variantlarining ko‘pligi va epigrafik nomning noto‘g‘ri talqinlari obida nomini me’yorlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Rasmiy hujjatlar va sayyohlik materiallarida o‘zbekcha me’yoriy shakl Xudoyorxon o‘rdasi, xorijiy tillarda yagona shakl (masalan, Khudoyar Khan’s Palace (Urda)) va epigrafik nomning izohli tarjimasi birga berilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot cheklovi shundaki, yozuvning arab imlosidagi asl matni va «Tarixi Shohruxiy» kabi Qo‘qon tarixiy manbalari bu ishda bevosita tahlil qilinmagan; ular keyingi tadqiqot vazifasidir.

XULOSA

Xudoyorxon o‘rdasi nomi antroponimik-memorial asosga ega bo‘lib, homiy ismi va sulola unvonini turkiy o‘rda termini bilan birlashtiradi. Obidaning fors izofasidagi epigrafik nomi hozirgi nomga o‘tishda so‘z tartibining almashuvi, termin almashuvi, sifatlovchining tushishi va titulaturaning qisqarishidan iborat to‘rt transformatsiyaga uchragan.

O‘rda so‘zi qadimgi turkiy ‘xon qarorgohi’ ma’nosini saqlagan holda rus tiliga ikki marta – орда va урда shakllarida o‘zlashgan. Saroy qismlarining 11 ta nomidan 10 tasida fors unsuri mavjud, -xona formanti esa saroy leksikasining asosiy yasalish modelidir. Nom variantlarining ko‘pligi va epigrafik nomning noto‘g‘ri talqinlari obida nomini uch tilda me’yorlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalaridan madaniy meros obyektlari reyestrini yuritishda, sayyohlik matnlarini tayyorlashda va onomastika bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – 2-nashr. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
2. Древнетюркский словарь / Ред. В.М. Наделяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. – Л.: Наука, 1969.
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988.
4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.
5. Historic Center of Qoqon // UNESCO World Heritage Centre: Tentative Lists. – Ref. 5291, 2008. – URL: https://whc.unesco.org/en/tentativelists/5291/ (murojaat sanasi: 30.09.2026).